



IMOM DORAQUTNIYNING ILMYI MEROsi

Djumanov Abdulaziz Maxammatlatipovich

Toshkent islam instituti "Hadis va islam tarixi fanlari"

kafedrasi o'qituvchisi

Kirish.

“Ey, Bag'dod ahli, men tirik ekanman Rasululloh sollalohu alayhi vasallamga biror kishi yolg'on to'qishini hayolingizga ham keltirmang”¹⁰.

Mana shunday jasorat sohibi, Abulhasan Ali ibn Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy ibn Mas'ud ibn No'mon Bag'dodiy Doraqutniy hijriy 306-yil, zulqa'da oyining beshinchisida Bag'dod shahrining mashhur «Doral-qutn» mahallasida tug'ilganlar. U zotning oilalari haqida biror bir manbada to'liq ma'lumot berilmagan. Lekin otasi Umar ibn Ahmad ibn Mahdiy Bag'dodiy haqida «Doral-qutn» qishlog'inining ilmli kishilaridan biri bo'lganligi, shu bilan birga Doraqutniyning qiro'at shayxlaridan biri ekanligi rivoyatlar va manbalarda ko'rsatilgan. Shuningdek, u hadis ilmidan birinchi saboqlarini ham otalaridan olgan. Zero, Imom Doraqutniy o'zinin “Sunan”ida bir necha hadislarni otalaridan rivoyat qilgan .

Imom Doraqutniy e'tiqod borasida salafi solihlarga ergashgan va bid'atchilarning bid'atlaridan o'zoqda bo'lganlar. Bu narsa u zotning kitoblari va u kishidan hadis hamda uning ilmi borasida rivoyat qilingan so'zlarida bilinib turadi. Abulhasan Doraqutniy aqidani o'z masdari, ya'ni Allohning kitobi va Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning sunnatlaridan olganlar.

Imom Doraqutniy aqida borasida bir necha kitoblar yozganlar. Jumladan “Kitob ahodisu sifot”, Kitob nuzul”, “Kitob ru'ya” kabi kitoblarini misol qilib keltirishimiz mumkin. Mazkur kitoblarda muallif aqidaviy masalalarni salaflarning yo'llariga mos tarzda bayon qilganlar.

Imom Doraqutniy yoshligidan o'zining ziyrakligi va zehnining o'tkirliligi va o'ta kuchli fahmi bilan nom qozonganlar. Hatto u zot haqida aytilgan ba'zi rivoyatlarda aqli va zakovati insonlarni hayron qoldiradigan darajada o'tkir ekanligi ta'kidlangan.

Shu o'rinda Imom Doraqutniy o'ta kamtar, taqvodor, ilmni faqat ezgulik yo'lida egallagan va tarqatgan olimlardan biri bo'lganligini aytib o'tishimiz lozim. Shogirdlarini orasida ulardan o'zini ayri holda tutmay, balki ularning biriday kamtarin holda yurar edilar. U zotning tavozu va kamtarliklariga yana bir yorqin misol qilib Abu Abdulloh Muhammad ibn Suriyni rivoyatini keltiramiz; “Menga Abdulg'ani ibn Saiyd aytib berdi; “Men mu'talaf va muxtalaf nomli kitobimni yozishni boshlaganimda oldimga Abulhasan Doraqutniy keldi. U zotdan juda ko'p narsalarni o'rganib kitobimga qayd qildim. Kitobni yozib bitirganidandan so'ng mendan uni o'qib berishni so'radilar. Men “Bu kitobni aksar qismini sizdan o'rgandim-ku”, deb aytdim. Shunda u zot, “yo'q, unday emas, chunki mendan so'raganlaring tarqoq holatda edi, sen esa uni

¹⁰ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot, Zuhd va raqoiqlar. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 134.



jamladning va yaxlid bir kitob holatiga keltirding, bundan tashqari bu kitobda sen o'z shayxlaringdan olgan ko'p ilmlar bor", dedilar. So'ng men unga kitobni o'qib berdim"¹¹.

Abulhasan Doraqutniy yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek hijriy IV asrda yashab ijod qilganlar. Bu vaqtlar esa musulmonlar hayotida juda ko'p mashaqqatlar paydo bo'lgan davr hisobalanadi.

Doraqutniy yashagan asr bir qit'adan ikkinchi qit'aga, bir shahardan boshqa bir shaharga ilm talab qilib uyushtirilgan safarlarning ko'pligi bilan ham ajralib turadi. Shuningdek, bu davr islomiy diyorlardan yetishib chiqqan olimlarning ko'pligi va hadis hofizlarining son-sanoqsizligi bilan ham o'ziga xos o'rinni tutadi.

Abulhasan Doraqutniy ilmni mana shunday davrda olganlar. U zot ilm talab qilishni yoshligidan boshladi. Ayni mana shu vaqtida Alloh taoloning shari'ati ilmini o'z zimmasiga olish uchun mas'uliyat hissi va o'z o'rnida shunga yarasha qobiliyat u zotda zohir bo'la boshladi. Insonlar bu zot kelajakda buyuk inson bo'lib yetishishlari haqida ko'p gapishar edi. Bu haqida Imom Doraqutniyning o'zlari; "Men va Kattoniy birgalikda shayxlardan hadis eshitar edik. Insonlar Kattoniy muhaddis Doraqutniy muqr'i bo'ladi deb aytishar edi. Kattoniy muqr'i bo'ldi men esa muhaddis bo'ldim" , deb aytadilar¹².

Doraqutniy yoshligidan o'tkir zehn va fahm sohibi deb nom qozongan. Xatib Bag'dodiy u haqida: «O'z asrining eng yuksak ilm sohibidir», degan¹³. Ilmlarni, xususan hadislarni yod olishda benazir bo'lgan va natijada «hadisning amiri» degan unvon olgan. Imom Doraqutniy ilm olishni salaflarning sunnatlariga va odatlariga muvofiq avval o'z shahri olimlaridan hamda shu shaharga ilm safari bilan tashrif buyurgan buyuk shayxlardan olganlar. Yoshi yigitlik vaqtiga yetgach ilm tahsil qilish maqsadida turli diyorlarga safar uyushtira boshladilar. Lekin ahamiyatlisi shundaki, ilm izlab borgan diyorlaridagi ko'p toliblar va hatto ba'zi olimlar ham u zotdan ba'zi narsalarni o'rganganlar. So'ngra boshqa shaharga safar qilayotganlarida esa bu diyor ahli bunday ulamodan ajralayotganligi tufayli mahzunlik hissini tuyar edi. Xossatan bu narsa Kufa va Misrga qilgan safarlarida namoyon bo'ladi.

Imom Doraqutniy ilmiy safar uyushtirgan shaharlar quyidagilar;

- | | |
|---------------|---------------------------|
| 1. Kufa | 5. Vosit. |
| 2. Basra . | 6. Shom. |
| 3. Damashq. | 7. Makka. |
| 4. Xuziston . | 8. Falastin va boshqalar. |

Mana shu diyorlarga qilgan safarlar mobaynida Imom juda ko'p shayxlar bilan uchrashganlar va ularidan ilm tahsil qilganlar. Jumladan:

- Ahmad ibn Ishoq ibn Bahlul,
- Ahmad ibn Salmon,

¹¹ Abdul Halim Mahmud. Latoiful minan. Dorul kitabul misriy. Qohira. 1990 yil. . – B. 134.

¹² Ahmad ibn Muhammad Hasaniy. Iyqozul himam fi-sharhil hikam. Dorul maorif.: Qohira 1119 yil. – B. 74.

¹³ Ahmad ibn Muhammad Hasaniy. Iyqozul himam fi-sharhil hikam. Dorul maorif.: Qohira 1119 yil. – B. 78.



- Ahmad ibn Ishoq ibn Vahb,
- Ahmad ibn Saiyd Hamadoniy,
- Ahmad ibn Muhammad ibn Sulaymon,
- Ahmad ibn Muhammad ibn Shayba,
- Ahmad ibn Sannon,
- Ahmad ibn Ibrohim ibn Habib,
- Ahmad ibn Ishoq ibn Bahlul,
- Ahmad ibn Shu'ayb ibn Solih Buxoriy,
- Ahmad ibn Muhammad Abdulkarim (Abu Tolha Fazoriy),
- Ahmad ibn Muhammad ibn Muhammad ibn Sulaymon (Abu Zar Vositiy),
- Ibrohim ibn Ahmad ibn Husayn Qirmisiyi,
- Ibrohim ibn Hammod,
- Ibrohim ibn Dabiys ibn Ahmad Haddod,
- Ibrohim ibn Muhammad Umariy,
- Ibrohim ibn Muhammad ibn Yahyo,
- Ibrohim ibn Yaziyd,
- Ibrohim ibn Muhammad ibn Aliy ibn Batho,
- Ishoq ibn Idris ibn Abdurahim Muborakiy,
- Qozi Husayn ibn Ismoil Mahomiliy va hakazo .

Doraqutniy o'zining "Sunan" kitobida zikr qilgan shayxlarining soni ikki yuzdan ortib ketadi¹⁴.

Quyida Doraqutniyning ustozlari bo'lgan bu olimlarning ba'zilari haqida qisqacha to'xtalamiz.

Yahyo ibn Muhammad ibn So'id. Hijriy 228 yilda tavallud topganlar. Yoshlari o'n bir yoshga yetganda hadis yoza boshlaganlar. 318 hijriy yilda Kufada vafot etganlar va o'sha yerga dafn qilinganlar¹⁵.

Yahyo ibn Muhammad ibn So'idning ustozlari; Muhammad ibn Sulaymon Luvayn, Ahmad ibn Maniy' Bag'aviy, Savvor ibn Abdulloh Anbariy, Yahyo ibn Sulaymon ibn Nazla, Abu Hummom Sakkuniy, Horun ibn Abdulloh Hammol, Abu Ammor Husayn ibn Hurays va boshqalar.

Yahyo ibn Muhammad ibn So'idning shogirdlari; Abu Qosim Bag'aviy, Muhammad ibn Umar Jiobiy, Muhammad ibn Muzaffar, ibn Abu Shurayh, Abu Muslim Kattob .

Yahyo ibn Muhammad ibn So'id haqida olimlar turli ijobiliy fikrlarni bildirganlar. Jumladan Axmad ibn Abdon Sheroyi; "U hadisni Bog'andiyidan ko'p bilar edi. Diroyat borasida biror kishi uning oldiga tusha olmas edi. ¹⁶"

Abu Ali Niysoburiy aytadilar "Yahyo ibn Muhammad ibn So'id davrida fahm borasida undan o'zadigani yo'q edi. Fahm esa bizda hifzdan ko'ra yaxshiroqdir. Yahyo

¹⁴ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot, Zuhd va raqoqlar. – Toshkent: Sharq, 2012. – B. 130.

¹⁵ Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Xislatlari hikmatlar sharhi. – Toshkent: "Hilol Nashr", 2019. – B. 126.

¹⁶ Al-Bayhaqiy Zahiruddin Abulhasan Ali ibn Abulqosim. Tarixi hukamo al-Islom. Damashq. Matba'a at-taraqqiy, 1946. – B. 128.



ibn Muhammad ibn So'id fahm va hifz borasida Abu Dovuddan ustun edi". Abu Bakr Niysoburiy. Hijriy 237 yilning boshida Niysobur shahrida dunyoga kelgan. Ilm izlab Iroq, Shom, Misr kabi shaharlarga safar qilganlar. So'ng Bag'dodni o'zlariga maskan qilib, o'sha yerda istiqomat qilganlar va shu joyda hadis fanidan dars bergenlar. Hijriy 324-yili vafot etganlar¹⁷.

Abu Bakr Niysoburiyning ustolari; Muhammad ibn Yahyo Zahla'iy, Ahmad ibn Yusuf Sulamiy, Ahmad ibn Azhar, Ahmad ibn Hafs ibn Abdulloh ibn Hoshim Tusiy, Muhammad ibn Husayn ibn Ishkob, Hasan ibn Muhammad Za'faroniy, Ahmad ibn Mansur Rommadiy va hakazo.

Abu Bakr Niysoburiyning shogirdlari; Doraqutniy, Da'laj ibn Ahmad, Abu Amr Hayyuya, Muhammad ibn Muzaffar, Ibn Shohiyn, Umar ibn Ibrohim Kattoniy, Yusuf Qavvos, Abu Tahir Mulaxxas va boshqalar. Abu Bakr Niysoburiy haqlarida imom Doraqutniyning o'zi quyidagilarni aytganlar; "shayxlarimizning orasida uning mislini ko'rмаганмиз. Matn va sanadlarni ham u kabi yodlaganlar yo'q edi. Matnlardagi ziyodalarni bilar edilar".

Xatib Bag'dodiy aytadilar; "Abu Bakr Niysoburiy fiqhni yaxshi biladigan puxta hofiz edi. Shu bilan bir qatorda rivoyatida o'ta ishonchli edi"¹⁸.

Ismoil Mahomiliyning ustozlari. Yusuf ibn Muso Qatton, Abu Hishom Rifo'iy, Yaqub ibn Ibrohim, Hasan ibn Sabboh Bazzor, Amr ibn Ali Fallos, Muhammad ibn Masniy Anbariy, Abu Ash'as Ijliy, Ishoq ibn Bahlul Tanuxiy, Hasan ibn Shozon Vositiy, Ishoq ibn Hotam Madoiniy, Abdurahmon ibn Yunus Sarroj, Abu Huzofa Sahmiy va boshqalar.

Tabiyki, Doraqutniydan ham ilm olib, unga shogird bo'lib talabi ilm qilgan insonlar xam son sanoqsiz bo'lgan. Chunki bu Imom juda ko'p islomiy diyorlarga safar uyushtirgan va nomi butun islam olamiga mashhur bo'lgan. Shu sababli imom Zahabiy Doraqutniyning shogirdlarini zikr qilib, "Bag'dod, Misr, Damashq, va boshqa o'lkalarning juda ko'p aholisi u zotning shogirdidir", deganlar¹⁹.

Imom Doraqutniyning eng mashhur shogirdalaridan,

- Ahmad ibn Xasan Toyyon,
- Ahmad ibn Muhammad Isbahoniy,
- Abu Bakr Borqoniy,
- AbuAbdurahmon Sulamiy,
- Abu Bakr Muhammad ibn Molik ibn Bishron,
- Abu Homid Isfaroiyniy,
- Abu Bakr Muhammad ibn Abdulmalik ibn Bishron,
- Abdulg'aniy ibn Saiyd Azdiy,
- Abulqosim Hamza ibn Yusuf Sahmiy,
- Abulhasan ibn Simsor Damashqiylar.

¹⁷. Al-Bayhaqiy Zahiruddin Abulhasan Ali ibn Abulqosim. Tarixi hukamo al-Islom. Damashq. Matba'a at-taraqqiy, 1946. – B. 132

¹⁸ Ibn Abbod Rundiy. "Sharh al-hikam al-Atoiyya". Qohira 1408 h. 1988.m. – B. 36.

¹⁹ Kibor ulamolar. Muxtasari shuruhul Hikamul Atoiya. Bayrut: Darul fadiyla, - B. 56.



- Abu Nu'mon Turob ibn Umar Misriy,
- Abu Mas'ud Damashqiy,
- Abu G'anoim Abdussomad ibn Ma'mun Sharif Hoshimiyy,
- Hamza ibn Muhammad ibn Tohir,
- Hamza ibn Yusuf Sahmiy,
- Abu Zar Hiraviy,
- Abu Tohir Ash'ariy,
- Abu Tohir ibn Abdurahim Kotib,
- Abu Tiyb Tobariy Qoziy,
- Abdulg'ani ibn Saiyd Azdiy,
- Abu Nasr ibn Jundiy,
- Abu Nuaym Isbahoniy,
- Abu Mas'ud Damashqiy,
- Abulqosim ibn Bishron,
- Abu Nu'mon Turob ibn Umar Misriy,
- Abulqosim Tanuhiy,
- Tammom ibn Muhammad Roziy .

Hofiz ibn Nuqta Abulqosim Hamza ibn Yusuf Sahmiy haqida; "Bir necha shaharlarni kezib chiqdi. U yerlarda shayxlardan hadislar eshitib, "Tarixi Jurjon" kitobini tasnif qildi. O'z asrining hofizlari bilan uchrashdi. Doraqutniy va boshqa hofizlardan shayxlarning holatlari haqida so'radi va ularning javoblarini bir kitobda jamladi. U zotning jarh va ta'dil, matn va sanadlarni bilish borasida ham yaxshi fikrlari bor", deb aytadilar²⁰.

Imom Doraqutniy hijriy 385 yil Zulqa'da oyida Bag'dod shahrida 80 yoshlarida vafot etganlar. Bu hodisa aynan qaysi kunga to'g'ri kelganligi haqida esa turli ixtiloflar mavjud. Vafotlaridan so'ng Imomning janozalarini faqih, shayx Abu Homid Isfaroiyniy o'qidilar va Imom Doraqutniy "Bobud Dayr" qabristoniga imom Karhiyning yaqinlariga dafn qilindi.

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Abulhasan Doraqutniy yashagan davr garchi siyosiy va iqtisodiy jihatdan notinch va beqaror bo'lgan bo'sada, bu narsa islomiy va shar'iy ilmlarning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsata olmagan. Aksincha, aynan shu narsaning o'zi ba'zida kishilarni ilm olishga undagan.

Imom Doraqutniyga zamondosh bo'lgan olimlarning u zot haqidagi fikrlari.

Hokim aytadi; "Shayximiz Abu Abdulloh ibn Abu Zuhayl haj safarini qildi va bu safar chog'ida Imom Doraqutniy bilan uchrashib qaytganidan so'ng uning hotirasi yuqori ekanligi va bu yerdagи barcha insonlardan peshqadam ekanligi bilan madh etdi. Men u zotning bu maqtovlariga o'zim haj safariga borib Doraqutniy bilan ko'rishib, u bilan suhabat qurganimdan so'ng yana bir bor amin bo'ldim. Safarim chog'ida Bog'dodga keldim va u yerda to'rt oydan oshiq turdim. U zot bilan kecha va kunduzlari

²⁰ Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Oltin silsila. Hilol nashr. 2013. - B. 156.



bir necha bor ko'rishdim. Bildimki, u zot ustozim madh etganidan ham ko'ra ustunroq ekan".

Abu Abdurahmon Sulamiy aytadi; "Guvohlik berib aytamanki, yer yuzida Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning hadislarini bilishda va shuningdek sahobiy va tobeinlarning asarlarini bilishda Doraqutniya o'xshashi yo'q edi".

Abu Muhammad Rajo ibn Muhammad ibn Iyso aytadi; "Men Doraqutniydan "bu inson o'zi kabi olim insonni ko'rganmi?" deb so'radim. Shunda u zot "Alloh taolo "O'zlarizingizni poklamanglar" degan", deb aytdi. "Men bunday demoqchi emasman, balki insonlar "uning mislini ko'rganmisan" deb so'rasalar "yo'q" deb javob berishim uchun so'radim", dedim. Shunda u "agar bir fan borasida bo'lsa, o'zimdan ham buyuk olimni ko'rganman. Ammo bir necha fanlar borasida esa, yo'q ko'rmaganman", deb javob qildi.

Doraqutniydan keyingi davrda yashagan olimlarning u zotga aytgan maqtovlari.

Hofiz Xatib Bag'dodiy aytadi; "Doraqutniy o'z asrining yorqin kishilaridan biri, o'z vaqtining imomi, hadislarning illatlisisini ajrata olishdek ilmgaga ega, roviylarning ismlari va ularning holatlarini biladigan, fiqh ilmini egallagan, e'tiqodi sahif va mazhabi to'g'ri, hadis ilmidan boshqa fanlarni ham chuqur egallagan zot edi".

Ibn Kasir "Imom Doraqutniy davri va o'zidan oldingi va keyingi davrning yagonasi, juda ko'p kitoblar sohibi, rivoyat va diroyatda o'z ishining ustasi", deb yozadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alimov U. Sunnat va Hadis. – Toshkent. Sharq, 2012.
2. Shayx Abdulaziz Mansur. Qur'oni Karim ma'nolarining tarjima va tafsiri. – Toshkent.TIU,2007.
3. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Oltin silsila. Hilol nashr. 2013.
4. Shayh Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot.Toshkent-2008.
5. Buxoriy. Aljome' assahih. – Qohira. Dorushsha'b, 1987.
6. Abu Dovud. Sunan. – Bayrut. Dorul kitab alarabi, 1346 h.
7. Muslim. Aljome' assahih. –Bayrut. Dorul jayl, 1989.
8. Ibn Moja. Sunan. – Bayrut. Dorul fikr. 2001.
9. Tabariy M. Tarixul umami val muluk. –Muhsiniya. 1988.
10. Zoyfulloh Rohiyliy. Imom abul Hasan Doraqutniy va osoruhul ilmiyya. –PDF. Variant 2000.
11. Bayhaqiy. Sunani kubro. –Haydarobod. Nizomiya, 1344 h.
12. Muhammad ibn Abdulg'ani. A'lom. –Bayrut. Dorul ilm.1980.
13. Sam'oniy. Ansob. –Hind. Doiratul ma'orif.1385 h.
14. Ibn Kasir. Albidoya van Nihoya. –Bayrut. Maktabatul ma'orif.1966
15. Xatib Bag'dodiy.Tarixi Bag'dod. –Bayrut. Dorul kutubul arabiy.1980.
16. Foad Sazkiyn. Tarixi tirosul arabiy. –Nashrul hayatul misriyya.1971.



17. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Tasavvuf haqida tasavvur. – Toshkent: Movarounnahr, 2004.
18. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va Hayot, Zuhd va raqoiqlar. J-9 Toshkent: Sharq, 2012.
19. Abdulqodir Abdurahim. E'tiqod durdonalari. Bad'ul amoliy sharhi. Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2012.
20. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Hadis va hayot. Toshkent: Sharq, 2008. J 36.
21. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Iymon. Toshkent: Sharq, 2006